

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
«YOSH OLIMLAR TIBBIYOT JURNALI»**

**TASHKENT MEDICAL ACADEMY  
«MEDICAL JOURNAL OF YOUNG SCIENTISTS»**

**ТАШКЕНТСКАЯ МЕДИЦИНСКАЯ АКАДЕМИЯ  
«МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ МОЛОДЫХ УЧЕНЫХ»**

**IXTISOSLASHUVI: «TIBBIYOT SOHASI»**

**ISSN: 2181-3485**

Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017 yil i5 sentabrdagi 728-sod qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risidagi nizomga muvofiq shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi.

**№ 8 (11), 2023**

«Yosh olimlar tibbiyot jurnali» jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023 yil 5 maydagi 337/6-sod karori bilan tibbiyot fanlari buyicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan.

Решением Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 мая 2023 г. № 337/6 «Медицинский журнал молодых ученых» внесен в перечень национальных научных изданий, рекомендованных для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам

## **ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**

Шадманов Алишер Каюмович

## **ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА**

Шайхова Гули Исламовна

## **ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ**

Алимухамедов Дилшод Шавкатович

## **РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

д.м.н., доцент Азизова Ф.Л.  
профессор Азизова Ф.Х.  
профессор Аллаева М.Ж.  
профессор Камилов Х.П.  
профессор Каримжонов И.А.  
профессор Каримова М.Х.  
профессор Набиева Д.А.  
профессор Нажмутдинова Д.Қ.

профессор Нуриллаева Н.М.  
профессор Тешаев Ш.Ж.  
профессор Хайдаров Н.К.  
профессор Хакимов М.Ш.  
профессор Хасанов У.С.  
д.м.н. Худойкулова Г.К.  
профессор Эрматов Н.Ж.  
профессор Маматкулов Б.М.

## **ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА**

Агишев И.А.	д.м.н. (Казахстан)	Парпиева Д.А.	д.м.н. (Ташкент)
Аглиулин Д.Р.	к.м.н. (Россия)	Рахимова Г.С.	д.м.н. (Ташкент)
Алейник В.А.	профессор (Андижан)	Рустамова М.Т.	д.м.н. (Ташкент)
Билолов Э.Н.	профессор (Ташкент)	Саломова Ф.И.	профессор (Ташкент)
Ганиев А.А.	д.м.н. (Ташкент)	Сидиков А.А.	д.м.н. (Фергана)
Инаков Ш.А.	PhD (Германия)	Собиров У.Ю.	профессор (Ташкент)
Искандарова Г.Т.	профессор (Ташкент)	Тажиева З.Б.	PhD (Ургенч)
Исраилов Р.	профессор (Ташкент)	Ташкенбаева У.А.	д.м.н. (Ташкент)
Кайнарбаева М.С.	к.м.н. (Казахстан)	Хасanova Д.А.	д.м.н. (Бухара)
Матназарова Г.С.	профессор (Ташкент)	Хасanova М.А.	д.м.н. (Ташкент)
Мирзоева М.Р.	д.м.н. (Бухара)	Хван О.И.	д.м.н. (Ташкент)
Мирмансур	PhD (Индия)	Хожиметов А.А.	профессор (Ташкент)
Муртазаев С.С.	д.м.н. (Ташкент)	Холматова Б.Т.	д.м.н. (Ташкент)
Орипов Ф.С.	д.м.н. (Самарканд)	Чон Хи Ким	PhD (Южная Корея)
Отамурадов Ф.А.	д.м.н. (Термез)	Юлдашев Б.С.	д.м.н. (Ургенч)
		Шадманов М.А.	PhD (Андижан)

## **Адрес редакции:**

Ташкентская медицинская академия 100109, г.  
Ташкент, Узбекистан, Алмазарский район, ул. Фараби 2,  
тел.: +99878-150-7825, факс: +998 78 1507828,  
электронная почта: mjys.tma@gmail.com

**Toshkent tibbiyot  
akademiyasi  
«Yosh olimlar tibbiyot  
jurnali»**



**Tashkent Medical  
Academy  
«Medical Journal of  
Young Scientists»**

• № 8 (11) 2023 •

## **МУНДАРИЖА – ОГЛАВЛЕНИЕ – CONTENTS**

### **КЛИНИЧЕСКАЯ МЕДИЦИНА**

<b>Азизова Р.Б., Хасанов Э.М., Атаниязов М.К., Асқаров Р.И., Шахрамбоев С.А. /</b> Бош мия сурункали ишемиясида доплерографик кўрсаткичларнинг ўзига хослиги .....	6
<b>Шарипова О.А., Бахронов Ш.С., Бобомуратов Т.А. /</b> Особенности корреляционных взаимосвязей соматотропного, адренокортикотропного гормонов и кортизола между иммунологическими показателями у детей с рецидивирующим бронхитом .....	10
<b>Zuparov K.F., Karimov A.Yu. /</b> Qorin churralarida yengil va og‘ir polipropilen to‘rdan foydalanishda aponevroz usti alloplastikani klinik-laborator baholash.....	16
<b>Махкамов Н.Ж., Ҳужаназаров И.Э. /</b> Умуртқа погонаси барча сегментлари касалликларининг клиник анамнестик таҳлилига креатив ёндашув.....	24
<b>Махкамов Н.Ж. /</b> Умуртқа погонаси диск чуррасининг ташрихида визуал ва патоморфологик солишиштirma ташҳислаш .....	30
<b>Отамурадов А.З., Хасanova М.А., Алимухамедов Д.Ш. /</b> Шахси номаълум мурда текшируvida тўш суюгини ўрганиш орқали ёшни аниқлаш .....	35
<b>Исмоилова З.А., Тажиева З.Б. /</b> Корреляционная взаимосвязь между цитокиновым профилем и парциальными функциями почек при острой ренальной патологии в период COVID-19 у детей .....	41
<b>Khayitov I.B., Khayitov J.B. /</b> Laparoscopy for the removal of liver echinococcosis.....	46
<b>Махкамов Н.Ж., Хайруллаев А.А., Исраилов Р.И. /</b> Бўйин, кўкрак ва бел соҳалари дегенератив – дистрофик жараёнида диск чурраси тўқима таркибининг фарқланувчи кўрсаткичлари таҳлили .....	50
<b>Хакимов М.Ш., Ашурев Ш.Э., Абдукаримов Ж.Ш., Асатуллаев Ж.Р. /</b> Прогнозирование острого панкреатита после ретроградных вмешательств в лечение механической желтухи доброкачественного генеза.....	56
<b>Хакимов М.Ш., Саттаров О.Т., Якубов О.Э., Файзиев С.И. /</b> Чов-ёргок чурралари хирургиясида эндовизуал технологиялар ёрдамида янгича ёндашув ва унинг клиник таҳлили.....	62

- Шарипова Д.Ш., Камилова И.А.** / Эффективность различных видов прогестеронотерапии при невынашивании беременности ..... 71

### **ПРОФИЛАКТИЧЕСКАЯ МЕДИЦИНА (ГИГИЕНА, ЭПИДЕМИОЛОГИЯ, МИКРОБИОЛОГИЯ)**

- Алматова У.А., Нематова Н.Ў., Мустанов А.Ю.** / Тошкент шаҳрида касалхона ичи ОИВ-инфекциясининг эпидемиологик хусусиятлари ..... 79
- Курбаниязова М.О., Мустанов А.Ю., Матназарова Г.С.** / Контагиоз гельминтозларнинг эпидемиологик таҳлили (сурхондарё вилояти мисолида)..... 83
- Ortiqov B.B., Zokirxonova Sh.A., Ochilov J.T., Alimova F.U., Turabova Sh.Sh. /**  
COVID-19 bilan xastalangan bemorlar kunlik ratisoni tarkibidagi mineral elementlarning tahlili .. 88
- Хоҷиқулова Д. Н., Тушматова Г.А.** / Shahar va qishloq sharoitida ta’lim olayotgan o‘quvchilarni darslarni o‘zlashtirishda mikroelementlarni ahamiyati (yod preparati misolida)..... 92
- Нақбердиев Н.Р.** / Aholi orasida allergik reaktsiyalar keltirib chaqaruvchi zamburug‘larga gigiyenik baho berish..... 96
- Цой В.А., Абдуллаева Д.Г.** / Диетотерапия при пищевой аллергии с учетом аллергенных свойств продуктов питания ..... 102

### **ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ МЕДИЦИНА**

- Ishandzhanova S.Kh., Azizova F.Kh., Otazhanova A.N., Sobirova D.R.** / Structural features of peyer's patches of female rats with experimental hypothyroidism ..... 111
- Кудияров И.А., Ёдгорова Н.Т.** / Сийдик йўли яллиғланиш касалликларида аниқланган ST.AUREUS нингантибиотикларга сезгиригини ўрганиш ..... 117
- Собирова Д.Р.** / Изучение и оценка эмбриотоксического действия генно-модифицированного продукта ..... 121
- Халилов Ш.М., Турсунов Х.З., Кариев С.С., Гайбуллаев А.А.** / Патоморфологические изменения внутренних органов при экспериментальном уролитиазе, леченном литолитом..... 125
- Отамурадов А.З., Хасanova М.А., Алимухамедова М.П.** / Тўш суюгининг турли қисмларининг бирлашишини таҳлил қилиш орқали ёшни аниқлаш ..... 134

### **НАУЧНЫЕ ОБЗОРЫ**

- Авезова Г.С.** / Болаларда геморрагик васкулитнинг (Шенлейн Генох касаллиги) патогенези ва гемостаз тизимидағи ўзгаришлар..... 139
- Berkinov U.B., Sakhibayev D.P., Omonov J.Sh., Jurayeva M.M.** / Ikki taraflama adrenalektomiya va uning giper kortitsizimdagи roli ..... 145

<b>Брянцева Е.В., Матназарова Г.С., Тиркашев О.С., Шакир Н.К.</b> / Вспышка кори в Республике Узбекистан и её вакцинация .....	156
<b>Kurbaniyazova M.O., Bryansteva E.V., Madenbayeva G.I., Matnazarova G.S.</b> / Epidemiological features of tuberculosis in the Republic of Karakalpakstan in the period 2011-2020 .....	163
<b>Камилова М.Р., Рахимбоева Г.С.</b> / Невролог амалиётида қон томир деменциясининг асосий клиник ўзига хосликлари .....	167
<b>Kamilova A.Sh., Ermatov N.J.</b> / Gelmintoz kasalliklarining tarqalish darajasini tahlil qilish .....	171
<b>Мамасидиков А.А., Миражмедова Х.Т., Мамасидикова С.Б.</b> / Аспекты диагностики и лечения системной красной волчанки.....	177
<b>Мамасидикова С.Б., Хидоятова М.Р., Набиева Д.А., Мирхамидов М.В., Мамасидиков А.А., Махмудова М.А.</b> / Сердечно-сосудистые заболевания у пациентов с ревматоидным артритом.....	183
<b>Mirzayeva M.A.</b> / Ko'krak bezi saratoni va metabolik sindrom.....	190
<b>Мирзоева М.Р., Гаффарова Ф.Х., Эрманов Р.Т.</b> / Клинико-эпидемиологические особенности коронавирусной инфекции у беременных .....	197
<b>Эштемиров А.Н., Мустанов А.Ю., Матназарова Г.С.</b> / Менингококк инфекциясини олдини олишда полисахарид вакцинасининг эпидемиологик ахамияти .....	202
<b>Mustafaqulova K.I., Oxunova M.T., Mnajov K.K.</b> / Bolalar bronxial astma kasalligi reabilitatsiyasida refleksoterapiyani qo'llanilishi .....	206
<b>Olmasbekov A., Kurbanova M.A.</b> / Alzheimer's disease and dementia: understanding the chemical basis and emerging research for effective prevention and treatment.....	211
<b>Dusmuxamedova A.F., Yarmuxamedova N.F., Salomova F.I., Bakieva Sh.X.</b> / Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning salomatlik holati va haqiqiy ovqatlanishi .....	219
<b>Тиллаева З.У., Шайхова Г.И.</b> / Гигиеническое обоснование мировых стандартов строительства частных дошкольных образовательных учреждений .....	231
<b>Toshmatova G.A., Axmadaliyeva N.O.</b> / O'smir yoshidagi maktab o'quvchilarining shahar va qishloq sharoitida ovqatlanishini qiyosiy tahlili.....	236

## O‘SMIR YOSHIDAGI MAKTAB O‘QUVCHILARINING SHAHAR VA QISHLOQ SHAROITIDA OVQATLANISHINI QIYOSIY TAHLILI

**Toshmatova Guzal Adilkodjayevna** – PhD, katta o‘qituvchi

**Axmadaliyeva Nigora Odilovna** – t.f.d., dotsenti

*Toshkent tibbiyot akademiyasi. Toshkent, O‘zbekiston*

**Annotatsiya.** Maktab davrida bola o‘sish jarayonlarini, metabolizmni kompleks qayta qurishni, endokrin tizimning, miyaning faoliyatini boshdan kechiradi, bu jarayonlar kattalarning yakuniy etilishi va shakllanishi bilan bog‘liq. Shuning uchun mакtab o‘quvchilarini va o‘spirinlarni oziq-ovqat bilan ta’minalash va parhezni to‘g‘ri tashkil etish juda muhimdir. O‘tkazilgan so‘rovnomalar va anketa tahlillari natijasida o‘smir o‘quvchilar orasida ortiqcha vazn 6 % o‘quvchini bezovta qilishi, ovqatga bog‘liq allergiya aynan qizil rangdagi qo‘sishmcha ta‘mli taomlarni iste’mol qila olmaslik, oshqozon gastriti, dukkakli maxsulotlar mosh, loviya, yeryong‘oq, salomatlikda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan yong‘oqlarni iste’mol qilishganidan so‘ng yuzlarida turli toshmalarni paydo bo‘lishi kabi bir qancha kasallik belgilari ularni doimiy bezovta qilishi haqidada ma‘lumotlarni o‘rganildi.

**Kalit so‘zlar:** bolalar va o‘smiralalar ovqatlanishi, ortiqcha vazn, sog‘lom ovqatlanish, metabolizm.

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ-ПОДРОСТКОВ В ГОРОДСКИХ И СЕЛЬСКИХ УСЛОВИЯХ

**Toshmatova Guzal Adilkodzhayevna** – PhD, старший преподаватель

**Axmadaliyeva Nigora Odilovna** – д.м.н., доцент

*Ташкентская медицинская академия. Ташкент, Узбекистан*

**Аннотация.** В школьный период у ребенка происходят процессы роста, сложная перестройка обмена веществ, функционирования эндокринной системы, головного мозга, эти процессы связаны с завершением и формированием взрослого человека. Вот почему очень важно обеспечить школьников и подростков питанием и организовать правильный рацион. В результате проведенного опроса и анализа анкет среди студентов-подростков избыточный вес беспокоит 6% студентов, пищевая аллергия, невозможность употребления продуктов с повышенным привкусом красного цвета, гастрит желудка, ознакомились с информацией о ряде симптомов заболевания, таких как появление Их постоянно беспокоят различные высыпания на лице после употребления в пищу бобовых, фасоли, арахиса, орехов, имеющих особое значение для здоровья.

**Ключевые слова:** Питание детей и подростков, избыточная масса тела, здоровое питание, обмен веществ.

## COMPARATIVE ANALYSIS OF NUTRITION OF SCHOOLCHILDREN-TEENAGERS IN URBAN AND RURAL CONDITIONS

**Toshmatova Guzal Adilkodzhayevna** - PhD, senior teacher

**Akhmadaliyeva Nigora Odilovna** - D.M.Sc., associate professor

*Tashkent Medical Academy. Tashkent, Uzbekistan*

**Abstract.** During the school period, the child undergoes growth processes, a complex restructuring of metabolism, the functioning of the endocrine system, the brain, these processes are associated with the completion and formation of an adult. That is why it is very important to provide schoolchildren and teenagers with food and organize the right diet. As a result of the survey and analysis of questionnaires among adolescent students, overweight worries 6% of students, food allergies, the inability to eat foods with an increased taste of red, gastritis of the stomach, got acquainted with information about a number of symptoms of the disease, such as the appearance. They are constantly worried about various rashes on face after eating legumes, beans, peanuts, nuts, which are of particular importance for health.

**Keywords:** nutrition of children and adolescents, overweight, healthy nutrition, metabolism.

**Kirish.** O'zbekiston Prezidentining PF-№4887 (10.11.2020) aholining sog'lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi farmonini amalga oshirish uchun nafaqat ta'lim tizimini takomillashtirish, balki bolalarning moddiy bazasini optimal rivojlantirish va o'sishini, shuningdek, ta'lim muassasalarining tarkibi va sifatini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Xalq ta'limi vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida 146-sonli qaroriga muvofiq umumta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanishi tashkil etish chora tadbirlari keng yo'lga qo'yilmoqda.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra jismoniy faollik va ovqatlanish normalari va qoidalariga rioya qilmaslik, tarkibida ko'p miqdordagi tuz, shakar va yog'lar bo'lgan oziq-ovqat va shirinliklarni iste'mol qilish, shuningdek vitaminlar va minerallarni yetarli darajada iste'mol qilmaslik yoshlarning o'sish va aqliy rivojlanishda sustkashlikka, kattalarda yurak-qon tomir, endokrin, xatarli o'sma va odamlarning bevaqt o'limga olib keladigan boshqa bir qator kasalliklarni rivojlanishiga sabab bo'ladi [3].

Shu bilan birga, koronavirus pandemiyasi oqibatlaridan olingan saboqlar shuni ko'rsatdiki, kasalliklarning og'irligi va o'limlarning sezilarli nisbati noto'g'ri turmush tarzi oqibatida kelib chiqadigan yondosh kasalliklar bilan uzviy bog'liq[4].

Hozirgi kunda bolalar va o'smirlar salomatligini asrash, inson umrini uzaytirish muammosi davlat siyosati sohasida ustuvor ahamiyat kasb yetmoqda. Barkamol o'sish va rivojlanish, bolalar va o'smirlar kasalliklarining

bo'lmasligi kelajakda mamlakat farovonligini ta'minlashning bir usuli sifatida qaraladi[6]. Bolalar salomatligini belgilovchi yetakchi omillardan biri ovqatlanish omildir.

Maktab davrida bola o'sish jarayonlarini, metabolizmni kompleks qayta qurishni, endokrin tizimning, miyaning faoliyatini boshdan kechiradi, bu jarayonlar kattalarning yakuniy etilishi va shakllanishi bilan bog'liq. Shuning uchun maktab o'quvchilari va o'spirinlarni oziq-ovqat bilan ta'minlash va parhezni to'g'ri tashkil etish juda muhimdir. Maktab o'quvchilarining ovqatlanish tartibi maktabdag'i xususiyatlarga, o'quv yuklamasiiga, sportga, ijtimoiy ishlarga va boshqa narsalarga bog'liq

Oddiy ovqatlanish tartibi qo'shimcha mashg'ulotlar, sport seksiyalari, qiziqishlar guruhlariga tashrif buyurish vaqtiga qarab farq qilishi mumkin.

Biroq, o'smirlar uchun ratsionni tuzishda siz kun davomida oziq-ovqat va kaloriya tarkibining to'g'ri taqsimlanishini kuzatishingiz kerak. Maktabgacha yoshdag'i kabi, maktab o'quvchilariga kunning birinchi yarmida oqsilga boy ovqatlar va kechki ovqat uchun asosan sut-sabzavotli taomlar berilishi yaxshi-roqdir.

Kun davomida kaloriyalarni taqsimlash quyidagicha tavsiya etiladi: nonushta - 25%, tushlik - 35-40%, maktab nonushta (yoki tushdan keyin choy) - 10-15%, kechki ovqat - 25%. O'quvchilarining turli xil ovqatlanishlarini ta'minlash, bir xil idishlar kun davomida takrorlanmasligi va hafta davomida 2-3 martadan ko'p bo'limganligi juda muhimdir.

Maktab yoshidagi bolalar uchun ovqatlanishi tashkil etish muammosiga katta e'tibor

qaratilishiga qaramay, uning mintaqaviy komponentini hisobga olgan xolda bolalar sog‘ligiga ta’siri yetaricha o‘rganilmagan bo‘lib qolmoqda, garchi oziq-ovqat tarkibi, sifati, yet kimyoviy moddalarning mavjudligi, shuningdek xaqiqiy ozuqaviy ta’milot yashash xududi tomonidan belgilanadi va ozuqaviy kasalliklarning rivojlanishi xavfini keltirib chiqaradigan omil hisoblanadi. Bu borada ta’lim muassasalarida o‘quvchilarining ovqatlanishi va sog‘lig‘ini monitoring qilish doirasida shahar va qishloq maktab o‘quvchilarining ovqatlanishini ratsionalizatsiyalashga oid uslubiy va tashkiliy yondashuvlarni ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb yetadi. Inson yoshlik davrida sevib is’temol qilgan va ayni damda organizm uchun havfsiz ko‘ringan mahsulotlar, katta yoshga yetganida salomatligi uchun faol “Zarar keltiruvchi” larga aylanib qolayotganini ko‘rib turibmiz. Yosh o‘tgani sari bu mahsulotlar immunitetning pasayishida va bir qator yangi, moddalar almashinuvni buzilishi bilan bog‘liq kasalliklarni kelib chiqishining asosidir. Lekin, to‘g‘ri ovqatlanish ehtiyoji va tartibi bilan, o‘rganib qolingga mahsulotlarimizni o‘sayotgan organizmga salbiy ta’siri mavjudmi degan qarama qarshi ikki xil fikrlar paydo bulgan [1].

Shu maqsadda biz o‘smirlar sevib is’temol qiladigan, televizor reklamalarida ko‘rsat-yotgan yoki chiroyli yorqin qadoqlangan ayrim mahsulotlarni tarkibini adabiyotlar bo‘yicha o‘rgandik. Yana o‘smirlarda yengil ovqatlarga (snack – legkaya pisha) bo‘lgan ehtiyojini, ovqatlanishi bilan salomatligini o‘rganib chiqishni maqsad qildik.

Adabiyotlar tahlil qilinganda, shu narsa ma’lum bo‘ldiki, o‘smirlar orasida keng tarqal-gan kasalliklardan biri bu oshqozon ichak tizimi kasalliklari, xususan, gastrit, yara kasal-ligi, ortiqcha vazn yoki vazni yetishmasligi, avitaminoz, disbakterioz. Gastrit o‘smirlarda o‘tkir, ayrim xolatda esa surunkali kechishi mumkin. Bu esa ularni to‘g‘ri ovqatlanmasliklari, gazlangan ichimlik, saqich, turli yengil taomlar iste’mol qilishlari ilan bog‘liq. Bizga ma’lumki, gazlangan ichimliklar tarkibi ko‘p miqdorda shakar va karbonat kislotosidan iborat bo‘lib, tez-tez iste’mol qilinganida, orga-

nizmdan suyak va tishlarni o‘sishi va tuzilishi uchun muhim element bo‘lgan kalsiyini chiqib ketishini kuchaytiradi[3]. Gazlangan ichimliklar tarkibida yana emulgatorlar, bo‘yoqlar, aro-matizatorlar ham mayjud. Yana bir kasallik bu disbakterioz, ya’ni ichakdagagi foydali va zararli mikroblarni sonini nibatini o‘zgarishi bilan kechadi [5]. Uning asosiy belgilari – qorindagi bezovtalik, shishib ketish, dam bo‘lishi va x.k.

Semirish xam moddalar almashinuvini buzilishi, ortiqcha ovqatlanish hisobiga yuzaga kelib, ota-onalar bunday holatda shifokor bilan albatta maslahat qilishlari, shirinliklar va yengil taomlar o‘rnini turli meva va sabzavotlar bilan almashishlari zarur. Chunki ortiqcha vazn ularning kelajakdagagi boshqa jiddiy kasalliklar, xususan, qandli diabet, ateroskleroz kelib chiqishiga asos yaratadi [7].

**Tadiqiqotning maqsadi.** Shahar va qishloq maktab o‘quvchilarining salomatligida ovqatlanishning o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish va qiyosiy taqqoslash.

**Tadiqiqot obyektlari va usullari.** Tekshiruv ob‘ekti sifatida, Toshkent shaxar Olma-zor tumani 29-o‘rta maktab va Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumani 32-umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari-o‘smirlar ovqatlanish tartibini, o‘smir o‘quvchilar orasida rivojlanayotgan nosog‘lom ovqatlanish natijasida rivojlangan yondosh kasalliklarni aniqlash. O‘smir o‘quvchilar orasida ovqatlanishga bog‘liq yondosh kasalliklarni rivojlanishida ovqatlanishni ta’sirini o‘rganish maqsadida maktab o‘quvchilari orasida anketa so‘rov-noma o‘tkazildi.

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi.** So‘rovnama o‘g‘il bola va qiz bola o‘quvchilar orasida jami 130 ta o‘quvchidan alohida o‘tkazildi. O‘quvchilar orasida bir qancha savol-larga javoblar olindi. Jumladan: Siz kuniga necha maxal ovqatlanasiz savoliga, 81 % bolar 3,4 maxal, 5-6 % o‘quvchilar 5, 6 marta 14% 2 maxal ovqatlanishi haqida javobini be-rishgan. 56 % o‘quvchini doimiy nonushta qilishi qolganlari ishtaxasi yo‘qligi yoki kech uyg‘onishi sababli nonushta qilmasliklarini aytishgan. Bundan tashqari o‘quvchilarni o‘zlarini sub’ektiv baholashlarii natijasida 35,5 o‘quvchida doimiy charchoq, 29 %ida Jiz-

zaxlik, 11 % ida oshqozondagi yoqimsiz og'riqlar, 12% da umumiyl xolsizlik va 2% ida ko'rishni pasayishi kabi belgilarni bo'lishini aytishgan. Iste'mol qilinayotgan taomnoma turida ovqatlarni turi bo'yicha berilganda ularni 80 % iga tez tayyor bo'luchchi taomlarni iste'mol qilish kayfiyatlarini ko'tarishi, issiq ovqatni iste'mol qilishga 12 % o'quvchi xayrixohlik bildirgan. Kun davomida iste'mol qilinayotgan ichimliklar bo'yicha savollarga 61% toza gazlanmagan suv, 15% shirin ta'mli sharbatlarni qolganlari gazlangan kola, pepsi ichimliklarni kun davomida 1 litrdan kam bo'luman miqdorda ichishlarini aytib o'tishgan. Ovqatlanish orasida tamaddilarni o'rganish davomida shuni aniqlandiki o'quvchilarni 53% i shokolad, 12%i muzqaymoq, 10 % kartoshka chipslari, qolganlari esa faqatgina saqich chaynab qo'yish bilan tamaddi qilmashiklarini yozishgan. Iste'mol qilinayotgan taomlarni vitamin va ko'katlar bilan boyitilishi haqida umumiyl tushunchalarga ega ekanliklarni yozishgan, lekin aynan qaysi oziq ovqat maxsulotlarini qaysi vaqtida to'g'ri iste'mol qilinsa ularni aqliy va jismoniy faoliyatlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi haqida aniq tushunchaga ega emasliklari o'rganildi. Sog'om ovqatlanish deganda nimani tushunasiz degan savollarga umumiyl javoblar berilgan bo'lib ko'pchilik o'quvchilarning javoblarida 92%i o'z vaqtida ovqatlanish, qolganlari to'yib, yog'li ovqatlanish ularni rivojlanishida yaxshi ta'sir ko'rsatadi degan fikrga kelganliklarini aniqlandi.

O'tkazilgan so'rovnomalar va anketa tahlillari natijasida o'smir o'quvchilar orasida ortiqcha vazn 6% o'quvchini bezovta qilishi, ovqatga bog'liq allergiya aynan qizil rangdagi qo'shimcha ta'mli taomlarni iste'mol qila olmaslik, oshqozon gastriti, dukkakli maxsulotlar mosh, loviya, yeryong'oq, salomatlikda alohida ahamiyatga ega bo'lgan yong'oqlarni iste'mol qilishganidan so'ng yuzlarida turli toshmalarni paydo bo'lishi, kabi bir qancha kasallik belgilarni ularni doimiy bezovta qilishi haqida ma'lumotlarni o'rganildi.

Shuningdek, bolalarda eng ko'p uchraydigan kasallik disbakterioz oshqozonda xazm jarayonini buzilishi ich ketish, qorinni be-

zovtaligi, qorinni shishib qolish hissiyotini orbit ketishi muammosi aniqlandi.

### Xulosa:

- Maktabimiz o'quvchilari orasida zararli ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklar juda keng tarqalgan, ayniqsa o'smirlik davrida.
- O'smirlarning diyetasi ko'p narsalarni orzu qiladi, bu kelajakda ularning sog'lig'iga ta'sir qilishi shubhasiz.
- Tadqiqot natijalari o'spirinlar afzal ko'rgan yengil taomlar (muzqaymoq, saqich, shokolad va boshqalar) sog'likka tuzatib bo'lmaydigan zarar etkazishi mumkinligini tasdiqladi.
- O'smirlarga to'g'ri ovqatlanish to'g'risida ma'lumot berish kerak, buning uchun biz «To'g'ri ovqatlanish bo'yicha maslahatlar» bukletni ishlab chiqdik va o'quvchilarga tarqatildi.

Odamning ovqatlanish odatlari bolalik davrida shakllanib, uning keyingi hayotiga ta'sir qiladi. Odatlar foydali va zararli, ikkincisi esa barqarordir. Yunon olimi, faylasufi va donishmand Pifagor bu haqda qisqacha va aniq aytgan: «Odam o'zining yomon odatlari bilan oxir-oqibat uni yo'q qiladigan kuchlarni harakatga keltiradi». Bugungi kunda tanamizga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ko'plab mahsulotlar bizning stolimizga kiradi. Yoshi bilan ushbu mahsulotlarni iste'mol qilish muqarrar ravishda immunitetning yomonlashishiga va kasalliklar sonining ko'payishiga olib keladi; davolash mumkin bo'luman yangi kasalliklar paydo bo'ladi, qaysiki asosida moddalar almashinuvini umumiyl buzilishlari yotadi.

### Adabiyotlar.

- Shayxova G.I. Гигиенические рекомендации по организации режима обучения и воспитания учащихся общеобразовательных школ. // Byulleten assotsiatsii vrachey Uzbekistana.-T.,2004.-S.99-104
- Salomova F.I. Социально-гигиенические условия проживания детей школьного возраста г. Ташкента // Pediatriya. - M.,-2008. № 2.-S. 87
- Salomova F., Xakimova D., Yarmuhamedova N. Характеристика образа жизни и функционального состояния сердечно-

сосудистой системы подростков //InterConf.  
– 2021. – S. 853-865.

4. “Umumiyl o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida o‘quvchilar ovqatlanishini tashkil etishning sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari” // SanQvaM №0017-21.

5. Санитарно-эпидемиологические требования к условиям и организации обучения в общеобразовательных школах // SanPiN 0341-16.

6. Ermatov N.J. Гигиенические условия обучения подростков в академических лицеях// Молодой ученый. М.,-2017. № 23-2 S. 38-40

7. Salomova F.I., Axmadaliyeva N.O., Toshmatova G.A. Shahar va qishloq sharoitida ta’lim olayotgan o‘quvchilar salomatligiga ularning ovqatlanishini va maktab sharoitlarining ahamiyati// O‘zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi byulleteni, 2022 №3 92-96 betlar.